

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA AN'ANAVIY DARSLARGA ZAMONAVIY  
YONDASHUV

**Saparova Umida Baxromovna**  
*Toshkent Amaliy Fanlar Universitet*

**Fayzullayeva Shaxzoda**  
*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti talabasi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan va darslarga zamonaviy yondashuv borasida so'z yuritiladi*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim, dars, zamonaviy, metod, interfaol, o'qituvchi, bilm, o'quvchi, tarbiya, rivojlanish,*

**KIRISH**

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida o'tkazilayotgan islohatlarning mazmuni bugungi kunda ta'lim jarayonini loyihalashda yangicha yondashuvlar bilan boyib kelmoqda 2019 yil aprelida O'zbekiston Prezidenti 2030 yilga qadar ta'lim tizimini rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqladi. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda 7-avgustda ma'qullangan ushbu qonuning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat, bunda ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi; ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'ymasligi; ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishidan iborat.

Asosiy qism: Ta'lim sifatini oshirishda mening fikrim, shundan iboratki, ta'lim sifatini oshirish yuzasidan bugungi kunda juda ko'p ishlar olib borilmoqda va maqsadli ishlar ham rejalashtirilmoqda. Ta'lim sifatini oshirish uchun eng muhim masala bu zamonaviy fikrlaydigan, o'z ustida doim ishlaydigan, fidoiy o'qituvchilarni tayyorlashdir.

Talim bu- Bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilishdir ta'lim o'quvchining bilish qobiliyatini o'stiruvchi asosiy omil hisoblanadi Ta'lim sifatini oshirish uchun birinchi o'rinda maktablardagi o'quvchilarning intizomini nazorat qilish kerak albatta intizom bo'gan joyda rivojlanish kuchli bo'adi. Ta'lim sifatini oshirishda faqatgina o'quvchilarga emas balki maktabdagi sharoitlarni o'rganib chiqish va uni yaxshilashdan iborat. bunda maktabrga yangiliklar yangi metodlar kiritish kerak .

Biz avvallari bolalarning yozuviga ko'piroq e'tibor qaratganmiz, diktantlar yozdirganmiz. hozirda esa yangi tajriba bilan esa o'quvchilarning tanqidiy fikirlashi, o'z fikrini erkin bayon eta olishga ko'piroq ahamiyat berilmoqda Hozirgi vaqtda ham ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda o'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim berish jarayonida talim oluvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakillantirish zamonaviy ko'nikmalar sifatida e'tirof etilayotgan chet tillardan foydalana olishga qaratilgan yondashuv va metodlarni yaratish ilmiy izlanishlarning

samarasidir. Bugungi kunda zamonaviy ko'nikma va bilimlarni egallashda jahonning ilg'or va tajribadan o'tgan usullarini milliy o'qitish tizimiga joriy etish ijobiy samara bermoqda, ta'lim beruvchi zamonaviy yondashuv ko'nikmalarni o'rganishda qanday usul yoki uslubda olib bormasin bunda sifat va natijalar muhim

O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqqan holda tanlanadi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtirish turli metodlar bilan boyitish va bu metod, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Kreativ fikrlash-ijodiy fikirlash va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. o'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadilar bunda o'quvchilar innovatsiyon yondashuvlarni o'rganadi va mantiqiy fikirlashni shakllantiradi. Kollaboratsiya:- Darsliklar o'quvchilarning jamoda ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi bunda o'quvchilar samarali fikirlash ko'nikmalarni almashishga ko'maklashadi. bugungi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida kata tajriba asoslarini tashkil etuvchi interfaol metodlar nomi bilan keng yuritilmoqda. interfaol ta'lim metodlari hozirgi kunda keng tarqalib barcha ta'lim muassasalarida keng qo'llanilib kelayotgan metodlardan biri hisoblanadi,

Interfaol metodi bu-ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikirlashga dunyo qarashini shakllantirishga undovchi, metod hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodlar:

- O'quvchilarning muayyan nazariy bilimlarini puxta o'zlashtirishga;
- O'quvchining erkin fikirlash layoqatini shakllantirish;
- Har bir o'quvchining faollikka undalishi;
- O'quvchining o'z fikrini himoya qila olishi;

Inson birinchi talim bazasini maktabda shakllantiradi bunda o'quvchilar bilimli inson bolishga va boshqa qiziqishlarini uyg'otadi. Odatda an'anaviy dars berish passiv dars berish usuli sifatida qaraladi. Lekin darsda o'quvchilarning faolligi yoki nafaolligi darsni qanday o'tishi va darsni qanday rejalashtirishga qaratilgan. An'anaviy darsning faolligini oshirish o'quvchilarning faolligiga bog'liq.

Ta'lim sifatini oshirishda:

1. Tashkiliy qismlarga etibor berish bunda salom-alik qilish, davomadni tekshirish, zarur ko'rgazmali qurol va kerakli jihozlarni darsga tayyorlashdan iborat.

2. O'tilganlarni takrorlash va yangi mavzuga tayyorlanish, va yangi mavzuga doir mavzularni takrorlash o'quvchilarning yangi mavzuga qay darajada tayyorligini tekshirish.

3. Yangi mavzuni yoritish- va uni kichik bo'laklarga bo'lib uni mazmunli qilib yetqazib berishdan iborat.

4. Bundan so'ng yangi mavzuni mustahkamlash- bunda olingan bilimlarni qo'llay olish o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish.



5. Darsga yakun yasash va baholash- darsning maqsadini yana bir bor eslatish va bu bilimga qay darajada erishganligini aniqlash o'quvchilarning mavzu bo'yicha savollariga javob berishdir.

Kam taminlangan oilalarning farzandlari ta'lim oladigan maktablarda o'quvchilarning bilim olish darajasi past bo'lishi kuzatiladi bunda o'quvchilarni har tamonlama qo'llab quvvatlash zarur. Barcha bolalar sifatli talim olish uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lishlari uchun o'quv materiallari va yuqori darajadagi malakali o'qituvchilar bilan ta'minlash zarur.

Ta'limga yondashuv bu- zamonaviy ta'limning talabi o'quvchilarga imkon qadar ko'p bilim berish emas aksincha sifatli talim berish va ularda o'z-o'zidan o'rgasinishga balki olingan bilim ko'nikmalari bilan ishlay olishga o'rgatishdir. O'quvchilarning bunda qay darajada bilishi muhim emas eng muhimi uning qay darajada o'zgarishiga, javob berish to'g'ri malumotlarni tanlash qobiliyatidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bu maqolada o'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi bugungi kunda o'quvchilar ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlarini keng qo'llab kelmoqda bunda o'quvchilar kreativ fikirlashni va ijodiy fikirlash qobiliyatlarini shakillantirib boradi. Avvallari o'quvchilarning husniyat yozuvlariga qatilgan bo'lsa hozirda esa yangicha yondashib o'quvchilarning o'zi mustaqil fikirlay olishlari va o'z fikriga ega bo'lishlari yanada yaxshilanib bormoqda va bunday yangicha yondashuvlar tufayli o'quvchilarning bilim darajasi yanada shakillanib bormoqda.an'anaviy darsning samaradorlugini oshirish va darsga o'quvchilarning zamonaviy yondashganligi borasida so'z boradi

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Tolipov O.Umumiy pedagogika Toshkent: 2007-yil
2. Ta'lim to'g'risidagi Qonun lex.uz sayti
3. Davydov V.V. Rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi.M. 1996-yil
4. Interfaol ta'lim metodlari arxiv.uz sayti